

**2026-2027-O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI IS'HOQXON IBRAT
NOMIDAGI IJOD MAKTABINING 7-SINFIGA
QABUL IMTIHONI UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST
SPETSIFIKATSIYASI**

**2026-2027- O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI IS’HOQXON IBRAT
NOMIDAGI IJOD MAKTABINING 7-SINFIGA
QABUL IMTIHONI UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST
SPETSIFIKATSIYASI**

Ushbu spetsifikatsiya ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining 7-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining 7-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori.

2. Ona tili va adabiyot fanidan umumiy o‘rta maktablarning 5-6-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining 7-sinfiga o‘qishga qabul sinovida o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **15 ta** yopiq test topshirig‘i taqdim etiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun **30 daqiqa** vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mazmun soha	Savol tartib raqami	Bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Ball
1. Ona tili (1-8 savollar) 8 ta					
Talaffuz va imlo	1	O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini bilish va unga doir topshiriqlarni bajara olish.	Y1	B	1.6 ball
	2	Kelishik qo‘shimchalari, ularning imlosi, qo‘llanishiga oid ko‘nikmalarni bilish.	Y1	Q	1.6 ball
Leksikologiya	3	So‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini farqlash.	Y1	Q	1.6 ball
	4	So‘zlarni ularning izohlari bilan moslashtira olish.	Y2	Q	1.6 ball
	5	Nutqda iboralardan o‘rinli foydalanish.	Y1	Q	1.6 ball
	6	So‘zlardan to‘g‘ri foydalanish, g‘aliz jummalarni topa olish.	Y1	Q	1.6 ball
Matnni tushunish	7	Matnni o‘qib tushuna olish, matn asosida berilgan topshiriqlarni ishlay olish.	Y1	M	1.6 ball
	8	Matnni tahlil qilish. Matn mazmuniga oid asosiy va qo‘shimcha fikrni aniqlash.	Y1	M	1.6 ball
2. Adabiyot (9-15 savollar) 7 ta					
Hikmat durdonalari	9	Xalq og‘zaki ijodi namunalarini farqlay olish.	Y1	B	1.6 ball
	10	Hadis namunalari, masallar hamda o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarining mazmuni yuzasidan chiqarilgan to‘g‘ri hukmni aniqlash.	Y1	M	1.6 ball
Jahon adabiyoti	11	Jahon adabiyoti vakillarining ijodidan keltirilgan namunalarni tushunish, tahlil qila olish.	Y1	Q	1.6 ball
	12	Bosh va yordamchi personajlarning xarakter xususiyatlarini topa olish.	Y1	Q	1.6 ball
Milliy meros	13	O‘zbek adabiyoti vakillari ularning asarlari, ushbu asarlardagi asosiy va yordamchi personajlarning xarakter xususiyatini tahlil qila olish.	Y1	Q	1.6 ball
	14	O‘zbek she‘riyati namunalarini tahlil qila olish. Matnni o‘qib tushuna olish.	Y1	M	1.6 ball
	15	O‘zbek mumtoz adabiyoti vakillari ijodidan keltirilgan namunalar mazmuni yuzasidan chiqarilgan to‘g‘ri xulosani aniqlash.	Y1	M	1.6 ball

IV. Kognitiv ko'nikmalar va baholash mezonlari

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan.

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar va baholash mezonlari bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)	Jami
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiallari qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanishini tushunishga qaratilgan	4	6.4
Qo'llash	Produktiv o'quv topshiriqlar o'quvchilar tomonidan o'rganilgan qoidalarini tanish vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llaydi.	2	3.2
	Produktiv o'quv topshiriqlar o'quvchilar tomonidan o'rganilgan qoidalarini tanish vaziyatlarda qo'llash, o'xshash vaziyatlardan farqlash, qiyoslash, muammoli vaziyatlarni aniqlashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan ma'lumotlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llaydi.	4	6.4
Mulohaza qilish	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarishni talab qiladi	5	8.0

Test topshiriqlari umumiy **24 ball** bilan baholanadi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun, shuningdek, javobi belgilangan tartibda belgilanmagan topshiriqlar uchun ball berilmaydi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Ona tili

1. 5-sinf. Ona tili darsligi (I, II qism) darslik / K.M. Mavlonova, N.S.Hakimova, M.R.Siddiqov, S.H.Qo'ldosheva; muharrir O.T.Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
2. 6-sinf. Ona tili darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent-2022.

Adabiyot

3. 5-sinf adabiyot darslik (I, II qism). Q.B.Yo'ldoshev, O.O.Olimjonov, N.N.Yusufjonova, S.I.Qambarova, D.B.To'xliyeva; muharrir X.A.Ibrohimov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
4. 6-sinf. Adabiyot darslik. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Toshkent- 2022.